

**Tuxtanazarov Ilxom Ibragimjanovich**

*Fardu harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

**Xofizov Javoxirbek Kurbanbay o'g'li**

*Fardu harbiy ta'lim fakulteti 4- bosqich kursanti*

**Annotatsiya:** *Har qanday murakkab tizim singari harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ham boshqaruv bo'lishini taqozo etadi. Boshqaruv vazifalari ko'p qirralidir, lekin uning eng asosiysi bu boshqariladigan tizimning holatini o'rganishdir. Bu yerda so'z harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tashkillanishi va uning natijalari, ya'ni o'quvchilarining harbiy xizmatga munosabati, Vatan himoyasiga shayligi to'g'risida va bu ishlarni takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilish to'g'risida bormoqda.*

**Kalit so'zlar:** *Vatan himoyasiga shaylik, vatanparvarlik tuyg'usi, umumiyl va maxsus talablar, axloqiy-siyosiy tayyorgarlik, harbiy-texnik tayyorgarlik, harbiy faoliyat, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tamoyillari, harbiy- vatanparvarlik tarbiyasining shakl va uslublari, rag'batlantirish uslubi.*

Bu asosiy vazifalardan tashqari, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining hisobotini yurgizish va uni tahlil qilish, pedagog kadrlarni tanlash va joyiga qo'yish, ularning vazifalarini belgilash va tartibga keltirish, shuningdek, bu ma'suliyatli ishda ularni nazorat qilish va rag'batlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi pedagog boshqaruvining muhim tamoyillari quyidagilardir:

ilmiylik, ya'ni har xil yoshdagi o'quvchilarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlanishi qonuniyatlarini hisobga olishga asoslanganligi;

jamoaviy va yakkaboshlik boshqaruvining birligi;

oshkorlik, ishchanlik, butun pedagog jamoaning o'quv yurti boshqaruvida qatnashishi;

har bir kishining topshirilgan topshiriqqa shaxsiy ma'suliyati;

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkillashning rejaga asoslanganligi;

tarbiyaviy ishlarda eng muhim yo'naliishlarni tanlab olish va ularni rivojlantirish malakasining borligi;

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayoniga keng ommani jalg qilish va boshqalar.

Boshqaruv faoliyati bu, eng avvalo, o'quv yurti ma'muriyatining vazifasi bo'lib u ma'muriy topshiriq berish usullari bilan birga uslubiy usullardan ham keng foydalanishi kerak. Bu o'qituvchilarining va sinf rahbarlarini harbiy-vatanparvarlik ishlaridagi pedagogik mahoratlarini o'sishga yordam berishi, o'quv yurtida faollik va bu ishlarning yakuniy natijasiga intilish kabi ijobiy holatlarini shakllanishiga xizmat qilishi zarur.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)**

Boshqaruv faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik jamoa o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash bilan bog'liqdir.

Quyida biz o'quv yurti ma'muriyati va o'qituvchilarining harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi borasidagi vazifalarini ko'rib chiqamiz.

O'quv yurti direktorining vazifalari quyidagilardan iboratdir:

-o'quv yurtida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ishlari umumiyligi rahbarlik qilish, kadrlarni tanlash, ularni o'z joyiga qo'yish va tarbiyalash;

-harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ishlari holatini tahlil qilish, uni rejalashtirish va jamoat o'quv yurtidan tashqari tashkilotlar bilan muvofiqlashtirish;

-harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi faoliyati, o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini oshirish harbiy tashabbuslar bilan chiqish va ularni amalga oshirish;

-o'quv yurti miqyosida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ishlari nazorat qilish va hisobotni yurgizish;

-harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkillash uchun zarur bo'lgan moddiy, ijtimoiy va axloqiy-ruhiy sharoitlarni yaratish;

-o'quv yurtidagi yoshlar taraqqiyotiga amaliy yordam ko'rsatish.

Bulardan tashqari o'quv yurti direktori harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha pedagogik kengashning raisi bo'lib ham hisoblanadi.

Direktoring ma'naviy va ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinbosarining vazifalari:

-o'quv fanlarining harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha vazifalarni yehish imkoniyatlarini aniqlaydi va ularni o'quv tarbiya jarayonida amalga oshiradi;

-o'quvchilarni Vatan himoyasiga tayyorlash bo'yicha dars va darsdan tashqari amalga oshiriladigan ishlar birligini va o'zaro hamkorligini ta'minlaydi;

-o'quv tarbiya jarayonini harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida olib borilishi haqida g'amxo'rlik qiladi va bu borada amaliy va nazariy konferensiyalar, seminarlar, pedagogik jamoa yig'ilishlarini o'tkazadi, shuningdek, o'qituvchilarga uslubiy yordam beradi;

-darsdan va maktabdan tashqari vaqtidagi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ishlari rahbarlik qiladi;

-Yoshlar tashkilotlariga ommaviy-mudofaa ishlari tashkillash va o'tkazishga uslubiy yordam beradi;

-«Shunqorlar» va «Temurbeklar» harbiy-sport o'yinlarini o'tkazish bo'yicha maslahatchilar kengashiga rahbarlik qiladi;

sinf rahbarlari tomonidan rejalashtiriladigan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ishlari nazorat va tahlil qiladi, ularni aniq bir maqsadga yo'naltirilganligini ta'minlaydi;

-sinf rahbari va fan o'qituvchilariga harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ishlari bo'yicha uslubiy yordamlar beradi;

-o'quv yurtining boshqa tashkilotlar va muassasalar bilan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha bo'lgan aloqa va o'zaro hamkorliklarni muvofiqlashtiradi.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)**

---

Sinf rahbarining vazifalari:

-sinf jamoasining harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha faoliyatiga rahbarlik qiladi;

-ushbu sinf bilan ishlaydigan o'qituvchilar ishlarini rejalashtiradi va ularni muvofiqlashtiradi;

-o'quvchilarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanishini doimiy ravishda kuzatib boradi;

-harbiy- vatanparvarlik tarbiyasi jarayoniga tuzatishlar kiritadi va bu jarayonga ota-onalar va mutasaddi tashkilotlar vakillarini jalg qiladi.

Fan o'qituvchilarining vazifalari:

-o'quv tarbiya jarayonining harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida bo'lishini, o'z fani vositalari yordamida bo'lajak Vatan himoyachisi shaxsini shakllanishini ta'minlaydilar;

-darsning tarbiyaviy maqsadlari tarkibiga doimiy ravishda harbiy-vatanparvarlik jihatlarini kiritadilar, o'quv maqsadiga muvofiq material tanlaydilar va uni faol uslublar bilan bayon qiladilar;

-o'quv yurtining Yoshlar tashkilotlariga pedagogik yordam ko'rsatadilar;

-«Vatanparvar», Yoshlar tashkilotlarining birlamchi jamiyatlariga rahbarlik qiladilar;

to'garaklarda o'tkaziladigan mashg'ulotlardan o'quvchilarining harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi uchun foydalanadilar.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbarining vazifalari:

-o'quv yurti direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinnbosari bilan birgalikda o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha tadbirlarni rejalashtiradi, Yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlashlarida sinf rahbarlari va fan o'qituvchilariga uslubiy yordam ko'rsatadi;

-o'quv soatlari vaqtida CHQBT bo'yicha va darsdan tashqari vaqtarda fakultativ mashg'ulotlar o'tkazadi;

-o'quv yurti ma'muriyati yordamida CHQBT moddiy bazasini rivojlantiradi va takomillashtiradi;

-CHQBT fanini boshqa fanlar bilan fanlararo bog'liqligini ta'minlaydi;

-harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha faollar kengashini tayyorlashga rahbarlik qiladi;

-harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha pedagogik kengashga va Yoshlar tashkilotlariga «Shunqorlar» va «Temurbeklar» harbiy-sport o'yinlarini tashkillash va o'tkazishda uslubiy yordam ko'rsatadi;

-harbiy-texnik to'garaklarini tashkillaydi va ular ishiga rahbarlik qiladi;

-o'quv yurtida ommaviy-mudofaa ishlari bo'yicha tadbirlarga rahbarlik qiladi va bu ishlarga mas'ul shaxslar, tashkilotlar, o'qituvchilar, zaxiradagi faxriylar va ota-onalarni jalg qiladi;

-yuqori sinf o'quvchilari bilan ommaviy-mudofaa to'garaklarida shaxsan mashg'ulotlar o'tkazadi;

-«Vatanparvar», Yoshlar ittifoqi singari tashkilotlarning birlamchi jamiyatlariga uslubiy yordam beradi;

-harbiy qismlar va xomiy tashkilotlar bilan o'quv yurti o'rtasidagi aloqalarni ta'minlaydi;

-o'quvchilarda harbiy xizmatga, harbiy kasblarga bo'lgan qiziqishni rag'batlantiradi va harbiy kasblarga yo'naltirish ishlarini olib boradi;

-harbiy qismlar, homiy tashkilotlar va boshqa tashkilotlarning yordamidan CHQBT fani, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirishda, o'quv-moddiy bazasini takomillashtirishda foydalanadi.

### **FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:**

Йигиталиева, З. М. (2020). МАТНДА МОДУСНИНГ ИФОДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ. Международный журнал искусство слова, 3(2).

Yigitaliyeva, Z. (2020). EXPRESSION OF THE MODUS BY PARALINGUISTIC MEANS. Theoretical & Applied Science, (2), 25-29.

Rasulovna, K. M. (2023). TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF ACADEMIC PERFORMANCE OF STUDENTS IN MEDICAL UNIVERSITIES. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(15), 64-67.

Abduvaliyeva, F. T., Azizova, F. L., Akromov, D. A., & Sherkuziyeva, G. F. (2022). APPROVAL AND ECOLOGICAL-HYGIENIC ASPECTS OF WATER SUPPLY TO POPULATION POINTS.

Кадирова, М. (2021). Педагогиканинг асосий категориялари, уларнинг тиббий таълим тизимидағи семантик мазмуни. Общество и инновации, 2(10/S), 52-57.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). VATANPARVARLIK TARBIYASIDA MUZEYLARNING MUXIM AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(4), 166-168.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUXIDA TARBIYALASHDA URUSH VA MEHNAT FAXRIYLARI BILAN TEMATIK KECHA VA UCHRASHUVLAR O'TKAZISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(5), 123-125.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUXIDA TARBIYALASHDA URUSH VA MEHNAT FAXRIYLARI BILAN TEMATIK KECHALAR VA UCHRASHUVLAR O'TKAZISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI. PEDAGOG, 1(4), 1340-1342.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). O'SIB KELAYOTGAN YOSH AVLODGA HARBIY TEKNIKA TO'GARAKLARINI TASHKILLASHTIRISH VA UALAR BILAN A'MALIYOTDA TADBIQ ETISH. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(10), 141-143.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)**

---

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). O 'QUVCHILAR HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINING ASOSIY VAZIFALARI VA YO'NALISHLARI, HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASIDAGI SAMARADORLIKKA ERISHISH YO'LLARI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 1(10), 186-189.

Xaydarali o'g'li, X. N., Komiljon o'g'li, Y. Q., Sardorbek No'monjon o'g, S., & Saydaliyevich, U. S. (2022). VATANPARVARLIK MAVZUSIDA NAZARIY KONFERENSIYALAR TAYYORLASH VA O 'TKAZISH. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 1(12), 107-111.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). YOSHLAR ONGIDA MILLIY G'OYA VA MAFKURA TUSHUNCHALARI SHAKLLANTIRISH. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 1(4), 11-15.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). O 'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI O 'QUVCHI YOSHLARINI-O'ZBEKİSTON XALQI VA QUROLLI KUCHLARINING JANGOVAR VA MEHNAT AN'ANALARI ASOSIDAGI HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI". INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 1(12), 393-395.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). VATANPARVARLIK MAVZUSIDAGI MA'RUZA, REFERATLAR TAYYORLASH VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(25), 395-398.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUXIDA TARBIYALASHDA JANGOVAR BAYROQQA VA HARBIY QASAMYODGA SODIQLIK HISSINI UYG'OTISH. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(18), 355-357.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). VATANPARVARLIK MAVZUSIDA NAZARIY KONFERENSIYALARNI MAQSAD VA VAZIFALARI. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 1120-1121.

G'aniyevna, S. A. (2023). ISSUES OF INTERCULTURAL COMMUNICATION AND RECEPTION. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(28), 191-195.